



**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KASBIY
FAOLIYATLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN SAMARALI
FOYDALANISHLARINING AHAMIYATI**

Nabiyeva Dilfuza Temirovna

Rustamova Shaxzoda Husan qizi

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada didaktik o'yinlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy faoliyatga metodik tayyorlash imkoniyatlari namoyon qilingan.

Kalit so'zlar: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, o'quvchilar, didaktik o'yinlar, dars, zamonaviy maktablar.

Аннотация: В данной статье показаны возможности методической подготовки будущих учителей начальных классов к духовной деятельности посредством дидактических игр.

Ключевые слова: Будущие учителя начальных классов, ученики, дидактические игры, уроки, современные школы.

Abstract: This article shows the possibilities of methodical training of future elementary school teachers for spiritual activities through didactic games.

Key words: Future elementary school teachers, students, didactic games, lessons, modern schools.

Bugungi kunda rivojlanayotgan innovatsion ta'lim jarayonida didaktik o'yinlarning ahamiyati katta bo'lib, didaktik o'yinlar – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan o'yinlardir. Ular bolalarni shakl, kattalik, rang, predmetlarni fazoda joylashuviga mo'ljallanish (xis-tuyg'u)larni hamda kuzatuvchanlik, diqqat, xotira, ong, nutq, hisoblash ko'nikmalari, tevarak atrof to'g'risidagi tasavvurlarini rivojlantiradi.



O'yin ko'ngil ochar, dam olish hisoblanib, u ta'limga, ijodga, o'sib unishi mumkin.

O'yin qadimdan ta'lim metodi sifatida keksa avlod tajribasini yosh avlodga berishda keng foydalanilgan. U xalq pedagogikasida, maktabgacha va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarda keng qo'llanilib kelingan.

Zamonaviy maktablarda ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirish maqsadida, o'yin faoliyati quyidagi holatlarda qo'llanilmoqda:

- o'quv predmeti tushunchalari, mavzulari va bo'limlarini o'zlashtirish mustaqil texnologiya sifatida;
- dars yoki uni qismi (kirish, nazorat) sifatida;
- sinfdan tashqari ish texnologiyasi sifatida.

O'yindan farqli ravishda pedagogik o'yin muhim belgilari ya'ni aniq qo'yilgan ta'lim maqsadi va unga mos pedagogik natija bilan farq qiladi.

Darsda o'yin shaklidagi mashg'ulotlar, o'yin usullarini vaziyatlar yordamida yaratish, ular o'quv faoliyatga o'zaro uyg'un, rag'batlantirish vazifasi sifatida yaratiladi.

Dars shaklidagi mashg'ulotlarda o'yin, usul va vaziiyatlarni amalga oshirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- o'quvchilar oldiga didaktik maqsad o'yin fazifasi sifatida qo'yiladi;
- o'quv faoliyat o'yin qoidalariga bo'ysindiriladi;
- o'quv materialini vositasi sifatida qo'llaniladi;
- o'quv faoliyatga musoboqa elementlari kiritilib, didaktik maqsad o'yinga o'tkaziladi;
- didaktik topshiriqni muvoffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

Oddiy maktabda bilimlar mantig'ini ko'rsatish qiyin emas. Bunda o'qituvchi – o'rgatuvchi shaxs. Ta'lim jarayonini manalog shaklida olib borish mumkin (o'qituvchi tushuntiradi, o'quvchi tinglaydi) hamda dialog shaklida (o'quvchi nimanidir tushunmagan bo'lsa savol beradi, o'qituvchi javob beradi, yoki o'qituvchi nazorat uchun o'quvchiga savol beradi). Ya'ni o'yinda asli tinglaydigan bilim manbai yo'q, o'rganadigan shaxs ham yo'q. Ta'lim jarayoni harakat tilida rivojlanadi, barcha o'yin ishtirokchilari faol muloqot tufayli o'rganadilar va o'rgatadilar, o'yin ta'limi ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladi.



Bugungi kunda o'qituvchilarni qiziquvchanligini oshirishning bir qator usullari mavjud. Bunday usullarning eng samaralisi didaktik o'yinlardir. U o'z mohiyatiga ko'ra murakkab, ko'p qirrali hodisadir. U o'qitish metodikasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Chunki didaktik o'yinlar bir qator pedagogik vazifalarni bajaradi.

Ta'limiy-vazifasiga ko'ra mazkur didaktik o'yinlar o'qituvchilarda dunyoqarashni shakllantirish, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, ularning bilim doirasini kengaytirish, mustaqil bilim olish layoqatini rivojlantirishga ko'maklashadi. Rivojlantiruvchi – ushbu vazifa o'quvchilarning tafakkurlarini rivojlantirish, faollikka undash, o'z fikrlarini bayon qilish layoqatini kengaytirish, ularning bilishga nisbatan qiziqishlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Tarbiyalovchi – bu o'quvchilarni jamoaviylik ruhida tayorlash, sheriklariga nisbatan xayrixohlik va hurmat bilan munosabatda bo'lish, bag'ri kenglik ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega. Yo'naltiruvchi – mazkur vazifa o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash, tashabbuskorlik ko'rsatish, mustaqillikni shakllantirish, jamoaviy hamkorlikka safarbar qilishga undaydi. O'yinlar vositasida o'qituvchilarda o'quvchilarni nazorat qilish, o'quv jarayoning borishi va natijalarini tashxislash, unga zarur o'zgartirishlar kiritish imkoniyati vujudga keladi. Bunday vaziyatlarda o'yin nazorat qiluvchi va tuzatuvchilik vazifasini bajaradi [1].

Didaktik o'yinlarni o'qitish shakli ham bo'lishi mumkin. Chunki u o'zining tashkiliy tarkibiga ega. Bu, o'z navbatida, o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro kelishuviga asoslangan faoliyat turi sifatida namoyon bo'ladi.

Didaktik o'yinlar o'quv vositasi hamdir. Chunki u bilimlarni egallash va ko'nikmalarini shakllantirish manbaidir. O'yinlar o'quvchilarning bilish qiziqishlarini hosil qiladi va qo'llab-quvatlaydi, o'quv materiallarining ko'rgazmalarini ta'minlaydi. Didaktik o'yinlardan barcha turdagi darslarda foydalanish mumkin. O'quvchilar muayyan dars mavzusi doirasida o'yinlarni tanlashda cheklanmagan imkoniyatlarga ega. O'yin doirasidagi topshiriqlarni o'quvchi mustaqil yoki o'quvchilar bilan hamkorlikda tanlashi mumkin. Tanlangan vazifalar amaliy-ijodiy mashq va topshiriqlar o'quvchilar uchun maroqli bo'lishi, ularning mantiqiy, obrazli tafakkurini rivojlantirishi hamda tasavvurlarini kengaytirishiga ko'maklashishi lozim.



O'yin jarayonida o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolari uchun ma'naviy jihatdan masuliyatni his qilishadi. O'zaro ishonch, bir-birini tushunish va hamkorlik muhitining mavjudligi tufayli o'quvchilarning o'z-o'zini anglashlari uchun qulay asos vujudga keladi. O'qituvchilar o'quvchilarning xulq-atvorlarini maqsadga yo'naltirilgan holda tuzatish va yaxshilashga erishadi. Natijada o'quvchilarda ma'naviy qariyatlarni egallashga nisbatan to'g'ri yo'naltirish yuzaga keladi. Didaktik o'yinlarning zamon va makon bilan bog'liq xususiyatlari o'quv o'yin faoliyatining dinamik va sarmazmunlik harakter kasb etishini ta'minlaydi.

O'yinda muvofaqiyatli vazifalarni vujudga kelishi o'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

O'yinda muvofaqiyatsizlik shaxsiy mag'lubiyat sifatida emas, balki o'yin bilan bog'liq mag'lubiyat deb qabul qilinishi o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantiradi [2].

O'yin jarayonida vujudga kelgan musobaqa uning ajralmas qismi bo'lib, u o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi. O'yin jarayonida bolalarning xursandchiligi darslarda qulaylik muhitini yaratadi va ularning predmetni o'rganish istagini kuchaytiradi. Umumiy maqsadga erishish jarayoni o'qituvchilarning fikrlash faolligini oshiradi, ya'ni fikrlash ta'lim vazifasini hal qilishga qaratiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Shodiyev N, Nabiyeva D. Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Uslubiy qo'llanma.– Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 88 b.
2. Ziyomuhammadov B. Ta'lim texnologiyalari. Metodik qo'llanma- T., 2012.-60 b.
3. N.Shodiyev, D. Nabiyeva “Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi ta'limida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy faoliyatga metodik tayyorlash”. Uslubiy qo'llanmasi – Samarqand: SamDCHTI, 2022. – 50 b.